

THE IMAGE OF THE KING AND THE SLAVE IN THE STORIES OF THE “SADDI ISKANDARI” EPIC**Shodiya Otanazarova***Urganch davlat universiteti,**O‘zbek filologiyasi fakulteti,**3-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Adabiyotning bosh mavzusi inson bo‘lgani uchun uning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asar uchun material bo‘la oladi. Lekin badiiy asarda gavdalantirilgan voqea-hodisalar hayotda ro‘y bergan yoki bo‘lishi mumkin voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtayi nazaridan qayta ishlangan shaklidir.*

Kalit so‘zlar: *obraz, badiiylik, shoh, gado, so‘z sehri, reallik, obrazlilik.*

Badiiy asar kompozitsiyasining muhim unsurlaridan biri portret personajning tashqi ko‘rinishi, ya’ni qiyofasi, bo‘y-bastining so‘z vositasida ochib berilishidir. Portret badiiy asarlarda ikki xil – statik portret va dinamik portret shaklida ifodalanadi. Voqealar jarayoni to‘xtatilgani holda, personaj tashqi qiyofasining detallashtirilib, batafsil tasvirlanishi statik portret va dinamik portret shaklida ifodalanadi.

“Saddi Iskandariy” dostoning so‘nggi hikoyatini tahlil qilib chiqamiz:

“Ulug‘ martabali shohga dag‘al so‘zlar bilan nasihat qilib, bu so‘z egovi bilan uning ishiga sayqal bermoqchi bo‘lgan kambag‘al, ammo qadri baland gado ” hikoyatida shoh va gado obrazlari bosh qahramon hisoblanadi.

Eshitishimcha, bir shohga hech bir narsasi yo‘q bir gado o‘z nasihati bilan ko‘p foyda yetkazibdi. U o‘zining qimmatli nasihatlarini bilan xuddi vayronadan xazina topib bergandek bo‘libdi. Agar birovning so‘zi o‘likni tiriltiradigan bo‘lsa, uning gapi qattiq-qurum bo‘lsa ham haqdir.

Davlat boshliqlaridan bittasi bu kambag‘alning so‘zlari haddan ziyoda qattiq ekanini fahmlab yetibdi. Lekin gapiruvchi g‘oyatda haqir va faqir odam edi. Shunda u davlat kishisi qahr-g‘azab bilan aytibdi:

- Ey, kambag‘al – qashshoq! U shoh, sen bir gado bo‘lsang, shohga nasihat qilishga nima haqqing bor?

Shunda haligi so‘zlarni ma’noli isonafas odam debdi:

Garchi men xas kabi haqir, nazar-nogiron odam bo‘lsam ham, agar senda so‘zdan ma’no olish qobiliyati bo‘lsa ham, mening o‘zimga emas, so‘zimga boq! Gap-so‘z o‘z mazmuni bilan xuddi toza durdek qimmatli bo‘lsa ham, gapiruvchi sadafdek past bo‘lishining nima zarari bor?

Badiiy obraz – murakkab estetik kategoriyaga bo‘lib, unda ijodkor hayot hodisalari va inson qalbidagi turli o‘zgarish va kechinmalarni o‘z dunyoqarashi, maqsadi

va estetik ideali asosida aks ettiradi. Badiiylik asosida ham obraz va obrazlilik turadi. Obrazlilik hayot hodisalarini obrazlar orqali gavdalantirishdir.

Obrazli fikr kishilarning diqqatini darhol jalb etadi. U odamning ongiga to'g'ridan to'g'ri emas, hissiyotlari orqali ta'sir qiladi. Shuning uchun ham obraz oddiy fikr, xabardan ko'ra diqqatni ko'proq tortadi. Boshqalar e'tiborini o'ziga qaratish esa odamni olamdagi jamiki narsadan ko'ra ko'proq lazzantiradi. Kishilar turli o'xshatishlar topib, ovozini har xil ohangga solib gapirishi va uni tinglashayotganligi, ma'qullashganida behad mamnun bo'lib yayrashi, e'tiroz bildirib, fikrini inkor etib, gapini to'xtatib, gapini to'xtatib qo'yishganida esa ranjib qolishi mumkin.

Har bir hodisaning tub mohiyatini belgilaydigan o'ziga xos asosi bo'ladi. Ana shu negiz uni boshqa narsa-hodisalardan farqlantirib turadi. Tarix, geografiya, fizika, kimyo, matematika, biologiya singari fanlar o'rtasida muayyan bog'lanishlar bo'lsa-da, ular orasida jiddiy tafovutlar ham mavjud. Bu farqlar, avvalo, ularning tarkibiy qismlaridan kelib chiqadi.

Obraz faqat san'atga xos hodisa emas. Ilm-fanda ham obraz mavjud. San'at va adabiyotdagi obraz ijodkorning aql-tafakkuri, qalb quvvati bilan boyitilgani bois ilm-fandagi obrazdan ko'ra ta'sirchanroq bo'ladi. She'r mutolaa qilganda hamma hayajonlanadi, bunday paytlarda har bir kishining qalbida ajib hislar paydo bo'lib, unda boshqalarga yaxshilik qilish istagi uyg'onadi. She'riyatning, umuman, san'at va adabiyotning ahamiyati, avvalo, shu bilan belgilanadi.

Ular hissiyotlarimizni ma'lum yo'lga solib, qalbimizda olamga va odamlarga nisbatan hamnafaslik, hamdardlik hissini uyg'otadi. Bundan qalbimiz quvvat olib, ruhimiz tozalanadi. Shunda ajdodlarimiz, notanish zamondoshlarimiz bilan ma'nau, ruhan yaqinligimizni his qiladi. Chunki asl she'rda so'z odatdagidek, aloqa, axborot vositasi emas, qalb hodisasiga aylanadi.

Shu bois Alisher Navoiy:

Ko'ngil durji ichra guhar so'zdurur,

Bashar gulshanida samar so'zdurur.

-deb aytadi. She'r, qo'shiq kishilarga boshqa barcha narsadan ko'proq ta'sir qiladi. Odamlar uni o'qiganida, eshitganida hayotning mohiyati, o'zining holatini beixtiyor idrok qila boshlaydi. Bunday chog'larda odam tushuntirib, sharhlab bo'lmaydigan holatga tushadi. Chunki o'shanda kishilar har bir lahza bo'lsa-da, ilohiyot bilan bog'lanadi. Shuning uchun insoniyat hamisha she'r, qo'shiqqa ehtiyoj sezib yashaydi. Badiiy san'at ularga doimo taskin beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Ulug'ov. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -308 b.
2. Saddi Iskandariy. Nasriy tabdil. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 452b.